

## BOSHQARUV HISOBIDA HISOB SIYOSATINING O‘RNI

**Abdug‘aniyeva Shohista**

**Abduxoliqov Kamronbek**

**Raxmankulova Oadinaxon**

*Guliston davlat universiteti Menejment  
yo‘nalishi talabalari*

**Turayeva Gulizahro**

*Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi*

***Annotatsiya.** Mazkur tezisda boshqaruv hisobi va hisob siyosatining korxonada faoliyatidagi roli yoritilgan. Boshqaruv hisobi korxonaning ichki ehtiyojlarini qondirish, resurslardan samarali foydalanish, rentabellikni aniqlash hamda faoliyatni nazorat qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tizimning samarali ishlashi esa to‘g‘ri tanlangan hisob siyosatiga bog‘liq. Hisob siyosati orqali korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlari, xarajatlar, mahsulot tannarxi va foyda aniq hisoblab chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:** boshqaruv hisobi, xarajatlarni rejalashtirish, korxonada strategiyasi, hisob siyosati, resurslar, tannarxni hisoblash, xarajatlarni boshqarish.*

### KIRISH

Boshqaruv hisobi korxonada ichki qarorlar qabul qilish, resurslardan foydalanish, rentabellikni aniqlash va faoliyatni nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu hisobning asosiy omillaridan biri — bu hisob siyosatidir. U orqali korxonaning iqtisodiy faoliyati aniq va tartibli yuritiladi. Hisob siyosati buxgalteriya hisobining ichki me‘yorlarini belgilaydi va boshqaruv hisobining aniq, ishonchli va o‘z vaqtida ma‘lumot berishini ta‘minlaydi.

Hisob siyosati — bu korxonaning hisobot yuritishdagi usullarini, baholash tartibini va moliyaviy ko‘rsatkichlarni shakllantirish qoidalarini belgilovchi tizimdir. Boshqaruv hisobida esa bu siyosat korxonada ichki ehtiyojlari asosida tuziladi, ya‘ni rahbariyat uchun tahliliy, tezkor va strategik ma‘lumotlar tayyorlanadi.

*1-jadval*

### *Hisob siyosati boshqaruv hisobining quyidagi vazifalari*

<b>Hisob siyosati boshqaruv hisobining quyidagi vazifalarini bajarishga xizmat qiladi:</b>	
Tashkiliy jihatdan boshqaruv hisobining shakli va metodologiyasini aniqlash;	Xarajatlarni rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish asoslarini yaratish;
Bo‘linmalar faoliyatini tahlil qilish va baholash;	Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;

Moliyaviy va ishlab chiqarish byudjetlarini tuzish.	Korxonada strategiyasini qo‘llab-quvvatlovchi axborot bazasini shakllantirish.
---	--

To‘g‘ri tanlangan hisob siyosati yordamida mahsulot tannarxi, bo‘linmalar samaradorligi, xarajatlar rentabelligi va foyda tahlil qilinadi. Bu esa rahbarlarga samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Hisob siyosatida ishlab chiqilgan usullar asosida xarajatlar normativ asosda rejalashtiriladi, byudjetlar tuziladi va sarf-harajatlar ustidan doimiy nazorat o‘rnatiladi. Bu orqali isrofgarchilik oldi olinadi. Hisob siyosati korxonada ichki moliyaviy nazoratni kuchaytiradi. Har bir bo‘lim o‘z faoliyati bo‘yicha hisobot beradi, reja va amaliy natijalar taqqoslanadi, og‘ishlar aniqlanadi va tahlil qilinadi. Bozor sharoitida tez-tez o‘zgarib turuvchi vaziyatlarga moslashish uchun hisob siyosati korxonani tayyorlaydi. Yil davomida zarur bo‘lsa, bu siyosat qayta ko‘rib chiqiladi va moslashtiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hisob siyosati statik hujjat emas — u yil davomida korxonada ehtiyojlariga yoki tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga qarab qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Bu esa korxonani o‘zgaruvchan sharoitlarga tayyorlaydi.

2-jadval

### *Boshqaruv hisobida hisob siyosatining asosiy yo‘nalishlari*

Yo‘nalish	Tavsif	Natija
Xarajatlarni hisobga olish usuli	To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita xarajatlarni aniqlash	Mahsulot tannarxi aniqligi oshadi
Byudjetlashtirish	Rejalashtirish va byudjetlar tuzish tartibi	Resurslar samarali taqsimlanadi
Ichki nazorat tizimi	Hisob, hisobot, taqqoslash va audit mexanizmlari	Xatolik va yo‘qotishlar kamayadi
Qaror qabul qilishga xizmat qiluvchi tahlil	Foyda, zarar, rentabellik tahlili	Strategik qarorlar asoslanadi
Hisobotlarning tuzilishi va vaqti	Qanday ko‘rinishda va qanchalik tez taqdim etilishi	Rahbariyat tezkor ma‘lumot oladi

### **XULOSA**

Boshqaruv hisobi korxonada samarali qarorlar qabul qilish va ichki nazoratni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Hisob siyosati esa bu jarayonni tartibga soluvchi asosiy vosita bo‘lib, resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni nazorat qilish va moliyaviy

natijalarni aniq tahlil qilish imkonini beradi. To‘g‘ri ishlab chiqilgan hisob siyosati orqali korxonalar raqobatbardosh bo‘lib, bozor sharoitlariga moslasha oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ulomov S.S., Abdulkarimov A.M. va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
2. Zaripov, A., Anvarov, S., & Shamsiddinov, A. (2024). Qishloq xo‘jaligidagi investitsiya jarayoni. *Modern Science and Research*, 3(5), 484-490.
3. Qaynarovich, C. U., Djo‘rayevich, Z. A., & Lobar, M. (2024). Sanoat ishlab chiqarish vamaahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash usullari. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 108-112.
4. Qaynarovich, C. U., Djo‘rayevich, Z. A., & Lobar, M. (2024). Ishlab chiqarish sohasida xarajatlari va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 76-81.
5. Zaripov, A. D., Avezov, A., & Saydullayeva, V. (2024). Investments and investment activity statistics. *Экономика и социум*, (1 (116)), 641-644.
6. Umurzak, C., & Lobar, M. (2024). Economics of Transition to Innovation Economy in the Region Problems. *Miasto Przyszłości*, 52-56.
7. Chorshanbayev, U., & Muratjanova, L. (2024). Improving the methodology for using entrepreneurial activity in improving the well-being of the population. *Modern Science and Research*, 3(5), 475-483.
8. Ткачёва, А. (2018). Изображение смертных грехов в «книге о благой любви» хуана руиса. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 3(2 (67)), 42-46.
9. Aleksandrovna, T. A., & Stanislavovna, S. L. (2022). The actualization of the frame dolor within the framework of morbial metaphoric model in spanish poetic discourse. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(3), 350-354.
10. Tkacheva, A. A. (2025). The Use of Digital Storytelling as a Tool for Enhancing Sociocultural Competence University Students Learning Spanish in Uzbekistan. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 40, 293-312.
11. Maxmurovna, S. B. (2025). A linguoculturological analysis of italian proverbs related to the concepts of good and evil. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 3(4), 75-78.
12. Sadykova, B. (2016). Emotional words and tropes in the roman of italian author N. Ammaniti " I don't fear". In *science and practice: a new level of integration in the modern world* (pp. 123-125).
13. Saodat, I. Ko ‘k’ leksemasining etimologik tavsifi. *O‘zbekiston*, 75.